

## HOZIRGI INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MA'NO KO'CHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumaboyeva Nigora Sobir qizi

Samarqand viloyati Jomboy tumani 23 IDUM Ingliz tili fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ma'no ko'chishi umumiy va funksional xususiyatlari, ularning tilda ishlatalishi va ma'nolari hamda o'zaro ekvivalentlari taqqoslash yo'llari bilan o'rganilgan. Shuningdek, biz sinonimlarni sintaksis, leksikologiya, semantika kabi ko'p jihatlardan o'rgandik, yangilik ham zamonaviy tilshunoslikda sinonimlarning turlari va turli ma'nolarini chuqurroq o'rganganligidadir.

**Kalit so'zlar:** Leksikologiya, leksika, sathlari, lingvistik, ekspressiv-stilistik, dinamikasiga, morfema, uslubiy, kategoriya, kategoriya, Adabiy, metonimiya, sinekdoxa, predikativ.

Leksikologyaning ob'ekti tilning lug'at boyligidir. Bu boylik tilshunoslikda leksika deb ataladi, u muayyan tildagi barcha so'zlarni va shu so'zlar bog'lanishidan tarkib topgan ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalarni (frazemalarni) o'z ichiga oladi. Leksika atamasi ba'zan tor ma'nolarda ham qo'llanadi: dialektal leksika, kasb-hunar leksikasi, ilmiy leksika, vulgar leksika, Alisher Navoiy asarlari leksikasi, Pushkin asarlari leksikasi, Shekspir asarlari leksikasi kabi.

Lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish leksikologyaning predmeti hisoblanadi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: a) muayyan til lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralolingvisiik) omillarning ishtirokini o'rganish; b) lug'aviy birlıklarning funksional-semantik tavsifini berish, eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarini, tematik guruhlari va mikrosistemalarini aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarini yoritish; d) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-semantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Umumiy leksikologiyada barcha tillarning lug'at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi qonuniyatlar ko'rildi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur

munosabatlarining lug'at tarkibiga ta'siri, uning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birlıklarning zamonaviylik, yangilik, ekspressiv-stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik-semantik guruhlarga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir.

Tarixiy leksikologiyada ayrim olingen bir tilning leksikasi dinamik holatda — tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'lab o'rganiladi. shunga ko'ra u diaxron

leksikologiya hisoblanadi. Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi, asosan, tavsifiy (sinxron) leksikologiyadir, ammo unda tarixiy (diaxron) leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo'lib turadi: o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, so'zlarning hozirgi va eskirgan ma'nolarini qiyoslash, tavsiflash kerak bo'lganda shunday qilinadi. Tilda nomlash xususiyatiga ega bo'limgan, binobarin, leksik birlik sanalmaydigan so'zlar ham bor, ular faqat grammatik yoki modal ma'nolarni ifodalaydi, shunga ko'ra grammatik so'zlar yoki morfema-so'zlar hisoblanadi: yordamchi so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar, undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir. Bular tilshunoslikda ifodalovchi so'zlar (undovlar, modal so'zlar, yuklamalar), ko'rsatuvchi so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar), olmoshlovchi So'zlar (olmoshlar) va atovchi so'zlar (atoqli otlarning ma'lum turlari) kabi guruhlarga ajratiladi.

Leksik mazmunli so'zlar leksikologiyada, grammatik mazmunli so'zlar esa grammatikada (so'z turkumlari bilan bog'lab) o'rganiladi.

Tilshunoslikda leksik mazmunli so'zlarning strukturasi har xil ta'riflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli so'zlarning ifoda plani (tovushlardan tarkib topgan moddiy tomoni) leksema deb, mazmun plani (ifodalanuvchisi) esa semema deb ta'riflanadi. Demak, leksema va semema leksik birlikning (so'zning) o'zaro aloqada bo'lgan ikki tomoni ekanligi aytildi. Boshqa manbalarda esa leksema so'zning ifoda planigina emas, balki unining ifoda va mazmun planlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi ta'kidlanadi. Bu butunlik nominativ funksiyadagi so'z yoki so'z birikmasi shaklida bo'ladi. U onomasiologiyada tilning lug'at tarkibidagi bir komponent (vokabula) sifatida, semasiologiyada esa ma'lum ma'nolar tarkibidan iborat birlik (semantema) sifatida o'rganiladi.

Ingliz tilshunosligida leksemaning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi keng tarqalgan, bunda uning ifoda plani (tovush tomoni) nomema termini bilan, mazmun plani esa semema termini bilan nomlanmoqda.

So'zlarda semantik tarkib xususiyatlari. Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifida quyidagi belgi-xususiyatlarning alohida o'rni bor:

1. Har qanday leksema ikki tomonning – ifoda va mazmun planlarining (nomema va sememaning) birligidan tarkib topadi<sup>1</sup>:

a) leksemaning ifoda plani uning fonetik qobig'idir (fonemalar. bo'g'inlar va so'z urg'usidan iborat moddiy-material shakli). Masalan, ingliz tilidagi *madam* va o'zbek tilidagi *qu-loq* leksemalarining ifoda planida 5 ta fonema (*m,a,d,a,m / q, u, l, o, q*), 2 ta bo'g'in (*ma-dam / qu-loq*) va 1 ta so'z urg'usi (*'madam / qulo'q*) bor.

Leksemaning ifoda plani bo'g'in tiplari, uning fonetik tarkibi bilan bog'langan bo'ladi: o'zbek tilining o'z qatlamidagi umumturkiy leksemalarning ko'pchiligi bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardir. Bir bo'g'inli tub leksemalarning fonetik tarkibi

undosh+unli+undosh (*bosh, ko'z*), unli+undosh (*osh, o'n*) sxemalarida bo'ladi; bo'g'in va so'z boshida ikki undosh qatorlashib kelmaydi, ammo so'z oxirida ikki undoshning ketma-ket kelishi uchrab turadi: *to'rt, qirq* kabi. Ikki bo'g'inli tub leksemalarning birinchi bo'g'ini unli (*o-na*), unli+undosh (*ol-ti*), undosh+unli + undosh (*kat-ta*), undosh+unli (*bo-la*), ikkinchi bo'g'ini esa undosh+unli (*o-ta*), undosh+unli+undosh (*ol-tin*) sxemalarida bo'ladi. Ikkinci bo'g'in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari (*ochiq bo'g'in bo'lishi*) ko'p uchraydi (ke-cha, qay-g'u, bo-la, bo-bo kabi).

O'zbek tilining o'zlashgan qatlamidagi leksemalarning bo'g'inlarida, binobarin, so'zning ifoda planida ham bir qator o'ziga xosliklar bor.

Leksemaning ifoda planidagi turli shakllar uning tashqi formasi sanaladi;

b) leksemaning mazmun plani deyilganda uning ma'nosi (yoki ma'nolari) va uslubiy bo'yoqlari (ma'no qirralari) nazarda tutiladi. Masalan, *qulog* leksemasining mazmun planida quyidagi leksik ma'nolar bor: «eshitish a'zosi» (odamning qulog'i), «dutor, tanbur torlarini sozlash uchun o'rnalilgan murvatlar» (dutorning qulog'i), «qozonning yon tomonlaridan chiqarilgan tutqich-dastalar» (qozonning qulog'i) kabi<sup>2</sup>. Chehra leksemasining mazmun planida esa leksik ma'no qo'shimcha ottenka - uslubiy bo'yoq bilan qoplangan. Bu bo'yoq kishi kayfiyat, ruhiy holati yoki xulq-atvorining yuzdagagi aksini ifodalaydi, masalan, chehra degan ko'ngilning oynasidir.

Leksemaning mazmun planidagi leksik ma'no (yoki ma'nolar) va uslubiy semalar uning ichki formasi sanaladi.

Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning shakl va mazmun kategoriyalari munosabatiga asoslanadi: shakl mazmunning bo'lishini taqozo qiladi, mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi, ifodalanmaydi ham. Qiyoslang: *shahar, hashar* leksemalarining ikkalasida bir xil fonemalar qatnashgan, ammo bu fonemalarning joylashish tartibi farq qiladi, demak, leksemaning shakli har xil. Bu hol shu ikki leksema ma'nolarning tilda farqlanishini ta'minlaydi. Ulardagi fonemalar tartibini o'zgartirish esa shaklning yo'qolishiga olib keladi: *shahar* (so'z, leksema) - *ashhar* (so'z emas), *hashar* (so'z, leksema) - *rashah* (so'z emas). Demak, tovushlarning har qanday yig'indisi so'z (leksema) bo'lavermaydi: bunday yig'indi til birligining (leksik birlikning) shakli darajasiga ko'tarilishi uchun u albatta mazmun bilan bog'langan bo'lishi kerak. Ekstralivingistik (nolisoniy) omillar — ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong, tafakkur rivoji va boshqalar<sup>3</sup>. Masalan, oyoq so'zi dastlab inson a'zolaridan birini nomlagan, keyinchalik u xontaxta, kursi, stol, stul, karavot kabi mebellarning "oyog'i"ni ham atay boshlagan: xontaxtaning oyog'i, kursining oyog'i, stolning oyog'i, karavotning oyog'i kabi. Bunga inson yashab turgan muhitda turli-tuman mebel-jihozlarning paydo bo'lganligi, shu bilan bog'liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan

ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo'lgan; xudi shu xolatni ingliz tilida xam kuzatishimiz mumkin, buni kuyidagi misollarda kurib chikamiz:

He felt pain on his left foot. (55,126)

Sitting at the *foot* of the bed he read the book for his son. (55,125)

At the *foot* of the mountain there flows a long river. (55,245)

pinguins have very short *legs*... (55,46)

Not knowing that a *leg* of the chair was broken, he sat and fell down.

### *Ma'noning ko'chishi*

Ma'noning ko'chishi - bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi<sup>4</sup>. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, nafas leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi «o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo»dir, ammo nafasingizni iliq qiling deganda nafas leksemasi «havo»ni emas, «gap»ni va «niyat»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas, gap, fikr, niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish nafas leksemasining mazmun mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

Umuman so'z ma'nosining ko'chishi tushunchasi ikki leksik ma'no, ya'ni lug'aviy va kontekst ma'nolari o'rtasidagi o'zaro munosabat asosida shakllanadi. So'zning kontekstga bog'liq ma'nosи u yoki bu darajada lug'aviy ma'noga tobe bo'ladi. Bu esa bizning fikrimizcha, til uslublarining u yoki bu janrga biriktirilishi faqatgina adabiyotdagi muayyan yo'nalishlarga xosligi bilan izohlanadi. Xuddi shu erda til vositalarining eng murakkab qismi ishlatilib, badiiy vazifa va muallif fikri, uning yozuvchi sifatida individual xususiyati bilan mos ravishda o'ziga xos tarzda birikib ketadi. Funksional stilning umumlashgan tushunchasini V.V.Vinogradov quyidagicha izohlaydi: "Uslub – bu qo'llanish yo'llarining hamma tomonidan tan olingan va funksional shartlangan birligi bo'lib, u yoki bu xalqning umummiliy til doirasida boshqa xuddi shunday ifoda vositalari (muayyan xalqning nutqiy jamoaviy amaliyotida boshqa vazifalarni bajaradigan va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan)ga nisbatan nutqiy muloqot vositalarini tanlash va yaratishdir".

kategoriya adabiyotdagi birliklar ma'no ko'chishining ikki asosiy tipini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Adabiy tilga xos birliklarning mazmuni saqlangan holda, shakl o'zgarishi bilan yasalgan birliklar:

- adabiy til birliklarining qisman o'zgarishi bilan yasalgan slengga xos birliklar;
- adabiy til birliklarining fonetik o'zgarishi: squeeze me – excuse me; anyhoo – anyhow;

- adabiy tilga xos birliklarning so'z yasalishiga doir o'zgarishlari: bat – battalion; soph – sophomore;

- adabiy tilga xos birlik shaklining butunlay o'zgarishi bilan yasalgan slengga xos birliklar:

- yangi yasamalar: major – important; cool – good, excellent; cool one's jets – to call down;

- o'zlashtirilmalar: vaquero (ispan tilidan) – buckaroo, cowboy

Adabiy tilga xos birliklarning shakli saqlangan holda, mazmun o'zgarishi bilan yasalgan birliklar (ushbu birliklar adabiy tilga xos birliklarning leksik-semantik qatlamdag'i o'zgarishi bilan yuzaga keladi):

Grease: animal fat

Slang: 1) bribe money, 2) butter, 3) dynamite, 4) influence

Adabiy til birliklari va so'zlashuvga, xususan, slengga xos yasamalar o'tasida quyidagi kabi munosabatlarni keltirib o'tish mumkin:

1. o'simlik – odam: potato – stupid person;
2. asbob – odam: pipe – someone who smokes marijuana habitually;
3. hayvon – odam: animal – sexually aggressive person;
4. odam a'zosi – odam: beard – an intellectual person;
5. asbob – odam a'zosi: block – the head;
6. predmet qismi – predmet: rubber – tire;
7. hayvon a'zosi – odam a'zosi: hoof - a person's foot;
8. narsa – harakat: root – to eat like a pig; collar – to arrest;
9. hayvon – boshqa hayvon: goat – a race horse;
10. narsa – odamlar turadigan joy: pen – a prison of any kind;

Leksik-semantik o'zgarishlar asosini muayyan so'z ma'nosining pragmatik komponentlari tashkil etadi. Bu komponentlar so'z bilan bog'liq bo'lgan milliy tushuncha va an'analarni aks ettiruvchi semantik assotsiatsiyalar va konnotativ ma'nolar, muayyan jamiyat tomonidan so'zning ma'lum predmetlarga nisbatan ishlatalishi va boshqa ko'pgina ekstralengvistik omillar bo'lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983.
2. Abrams.M.H. A Glossary of Literary terms. – Boston: Thomson learning press, 1999. – 386 p.
3. Anvar Obidjon. Saylanma. Toshkent -2019. 161-bet.
4. Aronof M. et.al. Contemporary Linguistics. Third Edition. St. Martin's Press. -New-York: 1997. pp 245-252.
5. Bradford.R. Stylistics: The New Critical Idiom. – London: Routledge press, 1997. – 221p.

6. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. Guliston, 1988.
7. Fitzgerald Scott. The Great Gatsby. – USA: Booklover's library classics press, 2022. – 110 p.
8. Galperin I.R. English Stylistics. – Moskva: URSS press, 2020. – 334 p.
9. Glucksberg.S. Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. – New York: Oxford University press, 2001. – 144 p.
10. Goatly.A. The language of metaphors. – London: Routledge press, 1997. – 400 p.

**INTERNET MANBALARI:**

1. <http://ifa.amu.edu.plsap/files/1/02Corder.pdf>
2. [https://ciu.nstu.ru/kaf/persons/1570/a/file\\_get/214273%3Fnomenu%3D1#:~:text=Polysemy](https://ciu.nstu.ru/kaf/persons/1570/a/file_get/214273%3Fnomenu%3D1#:~:text=Polysemy)

